

«27» iyun 2022 yil

Paxtakor shaxri

Keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Paxtakor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan nizom asosida ish ko‘ruvchi raxbar **Zavkiev Ro‘zmonboy Kurganovich** bir tomondan va keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **"SHUNQOR QURILISH SERVIS" MChJ** nomidan Faoliyatini belgilovchi hujjat ustav asosida ish ko‘ruvchi raxbar **Yaxshiboev Alisher Allamuratovich** ikkinchi tomondan **Paxtakor tumanidagi sug‘diyona ko‘chasida 400 metr masofadagi to‘siqni (yevrazabor)ni joriy ta‘mirlashga** doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

### **I. Tariflar**

1.1 Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo‘llaniladi:  
qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi.

1.2.Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo‘yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo‘yiladi;

### **II. Shartnoma mavzusi**

2.1 Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga **Paxtakor tumanidagi sug‘diyona ko‘chasida 400 metr masofadagi to‘siqni (yevrazabor)ni joriy ta‘mirlash** ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta‘mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### **III. Shartnoma bo‘yicha ishlar qiymati**

3.1 Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, № 104129 -sonli lotga asosan tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining 21.06.2022-yil majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarni o‘z ichiga olgan holda joriy narxlarda **138 765 000 so‘m (Bir yuz o‘ttiz sakkiz million yetti yuz oltmish besh ming) so‘mni** tashkil etadi shundan QQS 18 099 782 (o‘n sakkiz million to‘qson to‘qqiz ming yetti yuz sakson ikki) so‘mni tashkil etadi.

### **IV. Pudratchining majburiyatlari**

4.1 Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

4.2.barcha qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

4.3.qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

4.4.qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o‘tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo‘yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta‘minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o‘rnatish;

4.5.mazkur shartnoma bo‘yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o‘ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo‘shatish;

4.6.qurilish maydoni qo‘riqlanishini ta‘minlash;

4.7.mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

### **V. Buyurtmachining majburiyatlari**

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga tegishli smetaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo‘lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo‘lgan davrda dalolatnoma bo‘yicha topshirish.

5.2.Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta‘minlash;

5.3.Pudratchining barcha murojaatlarini o‘n kun muddatda ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish;



5.4.moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga tegishli ilovaga muvofiq avans berish joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

5.5.mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab bir oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

5.6.mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

#### **VI. Ishlarni bajarish muddatlari**

6.1. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.2. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 30 kunni tashkil etadi.

6.3. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'linmasidan ruyxatga olinganidan keyin yuridik kuchga kiradi va 31 dekabr 2022 yilgacha amal kiladi.

#### **VII. To'lovlar va hisob-kitoblar**

7.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu 41 629 500 ( Qirq bir million olti yuz yigirma to'qqiz ming besh yuz ) so'mni tashkil etadi.

7.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi.

7.3. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymati 70% foizi miqdoridagi qolgan qismi joriy ta'mirlash ishlari tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin bir oy mobaynida o'tkazib beriladi.

7.4. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

#### **VIII. Ishlarni bajarish**

8.1. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

8.3. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.4. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.5. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

8.6. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni, qurilish maydonida qurilish maqsadlarida sarflangan energiya resurslari va kommunal to'lovlar qiymatini xisob-kitob qilish Pudratchi tomonidan amalga oshiriladi.

8.7. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.8. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

#### **IX. Ishlarni qo'riqlash**

9.1. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida



berish  
qabul

materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

9.2. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

#### **X. yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

10.2. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.3. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.4. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

#### **XI. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish**

11.1. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

11.2. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab Ob'ektni qabul qilish muddati uch kun mobaynida qabul qilib olinadi.

11.3. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan hujjatlarni taqdim etish muddati uch kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

11.4. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

#### **XII. Kafolatlar**

12.1. Pudratchi: barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

12.2. loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

12.3. o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini;

12.4. ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

12.5. ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.6. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida muddati 12 oy etib belgilanadi.

12.7. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

12.8. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

12.9. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «Davarxitektqurilishnazorat» organlari



tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudga muroja qilishini istisno etmaydi.

### **XIII. Shartnomani bekor qilish**

13.1. Buyurtmachi: shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

13.2. Ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

13.3. Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

13.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

### **XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi**

14.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

14.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

14.3. Ishlar bajarilmagan, bajarish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq tugatib berilmagan hollarda, Pudratchi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

14.4. Agar bajarilgan ishlar sifati, standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki pudrat shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, Buyurtmachi ishlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib Pudratchidan sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar bajarganlik uchun jarima pudratchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

14.5. Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

14.6. Neustoyka (jarima, penya) to'laganligidan qat'i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o'zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

14.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

### **XV. Nizolarni hal etish tartibi**

15.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

### **XVI. Alohida shartlar**

16.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

16.2. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

16.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.



16.4. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan Shartnoma 2 nusxada tuzildi.

### XVII Qo'shimcha shartlar.

17.1. Shartnomaga ilova qilinadigan xujjatlar: smeta, ekspertiza, guvoxnoma

### XVIII. Korrupsiyaga qarshi qoidalarning asosiy shartlari

18.1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonun xujjatlari talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni Paxtakor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki etmasligi shartligi yoxud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi.

pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;

tovlamachilik qilish;

pora sifatida pul to'lash;

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu xarakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

18.2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Paxtakor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchik xujjatlari zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallardan biri orqali xabardor qilishi kerak:

Korrupsiya haqida xabar berishga muljallangan ishonch telefoni: 1253 (qisqa raqami)

telegram-kanali: @antikoruz\_bot

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining elektron pochta: info@anticorruption.uz

### XIX. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

Pudratchi	Buyurtmachi
<b>"SHUNQOR QURILISH SERVIS" MChJ</b>	Tashkilot nomi: <b>Obodonlashtirish bosh-si</b>
Paxtakor tuman Kravsova kucha 4 uy	Manzil: <b>Dustlik MFY Sug'diyona 13 uy_</b>
Telefon: 94 571 95 42	Tel.: 72-353 14 34
Faks: _____	STIR: 201 025 570
STIR kodi: 303460050	kodi: _____
OKONX: 10710	OKONX:90211
X/R: <b>20208000700506497001</b>	Byurtmachining G'azna shaxsiy hisobvarag'i:
Bank nomi: Kishlok kurilish bank	<b>100022860082287065200110002</b>
MFO: 00139	Yagona G'aznachilik hisobvarag'i (YaG'H):
	<b>23402000300100001010</b>
Raxbar (direktor): <b>A. Yaxshiboev</b>	Bank nomi: Markaziy bank BB XKKM
M.O'.	MFO: 00014
	INN: 201122819
	Raxbar (direktor): <b>R. Zavkiev</b>
	
	M.O'.





## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

### **1. Loyihaning turi**

Shartnomasi

### **2. Loyihaning nomi**

Pudrat shartnomasi

### **3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot**

Shartnoma loyihasi Paxtakor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 27-iyunda ishlab chiqilgan va tizimga kiritilgan.

### **4. Mas'ul ijrochi**

Paxtakor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi mas'ul xodimi B.Jumanov

Paxtakor tumani yuridik xizmat ko'rsatish markaziga tizim orqali Paxtakor tuman Obodonlashtirish boshqarmasining "SHUNQOR QURILISH SERVIS" MChJ va boshqarma o'rtasidagi pudrat shartnomasi ekspertizadan o'tkazish va xulosa berishlik uchun kelib tushgan.

Shartnoma loyihasida "SHUNQOR QURILISH SERVIS" MChJ tomonidan Tibbiyot birlashmasiga 138765000 so'mlik Paxtakor tumanidagi Sug'diyona ko'chasida 400 metr masofadagi to'siqni (yevrazabor)ni joriy ta'mirlash ishlarini bajarish xizmatlarini ko'rsatash belgilangan.

Paxtakor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan Paxtakor tumanidagi Sug'diyona ko'chasida 400 metr masofadagi to'siqni (yevrazabor)ni joriy ta'mirlash yuzasidan 140 000000 so'mga tanlov e'lon qilingan. (lot raqami: 104129)

Paxtakor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi xarid komissiyasining 2022-yil 21-iyundagi bayonnomasiga asosan e'lon qilingan tanlovda "SHUNQOR QURILISH SERVIS" MChJning 138765000 so'mlik taklifi tanlov g'olibi deb topilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni 10-moddasiga asosan xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 31-moddasiga asosan pudrat shartnomasi bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Agar qonunchilikda yoxud taraflar kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ishni bajarish uchun pudratchi tavakkal qiladi.

Pudrat shartnomasining ayrim turlari (maishiy pudrat, qurilish pudrati, loyihalash yoki qidiruv ishlari pudrati, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati)ga, agar ushbu Kodeksning bunday turdagi shartnomalar to'g'risidagi qoidalarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ushbu qoidalar qo'llanadi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda amaldagi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq tuzilgan.

Shartnoma loyahasiga yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazish xaqidagi guvoxnoma, loyiha smeta va ekspertiza xujjatlari hamda Obodonlashtirish boshqarmasi xarid komissiyasining 2022-yil 21-iyundagi bayonnomasi ilova qilingan.

Shartnoma loyahasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

### **XULOSA QILAMAN:**

Paxtakor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan " SHUNQOR QURILISH SERVIS " MCHJ va birlashma o'rtasidagi pudrat shartnomasi loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq deb topilsin.

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi**  
**bosh yuriskonsulti**  
2022-yil 27-iyun



**S.Majitov**





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"SHUNQOR QURILISH SERVIS" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

**"SHUNQOR QURILISH SERVIS" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

06.10.2015

13090

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil).

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

303460050

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

Joylashgan joyi:

Jizzax viloyati, Paxtakor tumani, Paxtakor, DO'STLIK MFY, Y.RAJABIY  
KO'CHASI, 24-UY

Guvohnoma:

Jizzax viloyati, Paxtakor tumani, DAVLAT XIZMATLARI  
MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi).





Ободонлаштириш  
бошкармаси бошлиги:



Р.Завкиев

« 23 » Июнь 2022 йил

Пахтакор туман Ободонлаштириш бошкармасига қарашли Пахтакор туман Суғдиёна кўчасида 400 метр масофадаги тўсиқни (еврозабор)ни жорий таъмирлаш.

### МАЖЛИС БАЁННОМАСИ № 2

Пахтакор туман Ободонлаштириш бошкармаси бошлигининг 2022 йил 5 январдаги № 1 сонли буйруги билан тасдиқланган танлов комиссияси аъзолари куйдаги тартибда.

### КАТНАШДИЛАР

Пахтакор туман Ободонлаштириш бошкармаси бошлиги Р.Завкиев баҳолаш таъилов комиссиясининг раиси.

### КОМИСИЯ АЪЗОЛАРИ

Д.Худойбердиев  
Х.Азимов  
Б.Жуманов  
К.Нормуратов  
О.Маркаев

### КУНТАРТИБИ

Пахтакор туман Суғдиёна кўчасида 400 метр масофадаги тўсиқни (еврозабор)ни жорий таъмирлаш буйича махсус ахборот порталига жойлаштирилган (талабнома) га асосан .

Иш, хизматлар тугрисидаги 2022 йил «12» июндаги № 22110012104129 Эълон талабномаси натижаларини кўриб чиқиш.

Пахтакор туман Суғдиёна кўчасида 400 метр масофадаги тўсиқни (еврозабор)ни жорий таъмирлаш буйича ахборот порталига жойлаштирилган талабномага асосан талабгорлар томонидан такдим этилган таклифни куриб чиқиш ва танлов голибини аниқлаш.

Комиссия аъзолари жорий таъмирлаш буйича талабгор томонидан такдим этилган таклифларни урганиб чиқиб «SHUNQOR QURILISH SERVIS» MCHJ нинг таклифи харидор (бюртмачи) нинг барча талабларга жавоб беришини аниқлади .

Комиссия аъзоларининг фикр мулохозаларини эшитиш ва урганиб чиккан холда баҳолаш комиссияси

### КАРОР КИЛАДИ:

1. Пахтакор туман Суғдиёна кўчасида 400 метр масофадаги тўсиқни (еврозабор)ни жорий таъмирлаш буйича электрон танлов натижаларига ҳеч қандай шикоят ва эътирозлар бўлмаганлиги сабабли электрон танловда голиб чикқан «SHUNQOR QURILISH SERVIS» MCHJ билан шартнома тузиш мақсадида мувофиқ деб топилсин.

Бош мухандис:

Д.Худойбердиев

Х.Азимов

Б.Жуманов

К.Нормуратов

О.Маркаев





**ДЕФЕКТНЫЙ АКТ**

Мы нижеподписавшиеся в составе: Башқариев, Р. Завкеев, Ободоматириев составили настоящий акт о том, для текущего ремонта ограждения (еврозабора) длиной 400 м улица Сугдиона города Пахтако Пахтакорского района необходимо выполнить нижеследующие виды и объемы работ:

№ п/п	Наименование работ и затрат	Единица измерения	Количество
1	2	3	4
<b>ОГРАЖДЕНИЯ ПАНЕЛЬНОЕ (ЕВРОЗАБОР) ДЛИНОЙ-400М</b>			
1.	ПЛАНИРОВКА УЧАСТКА ВРУЧНУЮ	100M2	3,7300
2.	КОПАНИЕ ЯМ ВРУЧНУЮ БЕЗ КРЕПЛЕНИЙ ДЛЯ СТОЕК И СТОЛБОВ БЕЗ ОТКОСОВ ГЛУБИНОЙ ДО 0,7 м ГРУППА ГРУНТОВ 2	100M3	0,0905
3.	УСТАНОВКА ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ОГРАД ИЗ ПАНЕЛЕЙ ДЛИНОЙ 3 м	100M	3,7300
4.	ОКРАСКА ЗАБОРА С ПОДГОТОВКОЙ ПОВЕРХНОСТИ ИЗВЕСТКОВАЯ	100M2	14,7600
5.	УСТРОЙСТВО ЛЕНТОЧНЫХ ФУНДАМЕНТОВ БЕТОННЫХ	100M3	0,4476

Подписи:

1. Башқариев  
 2. Завкеев  
 3. А. Назрабдиев  
 4. В. Жуманов

